



MAKTABGACHA TA'LIMDA "ILK QADAM" DAVLAT DASTURINING MAZMUN-MOHİYATI

Turan International University

Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Sultanova Xusnida Odiljon qizi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining mazmun-mohiyati yoritilgan. Dastur asosida bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, o'yin faoliyatining ustuvorligi, tarbiyachining yo'naltiruvchi roli hamda oila va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: "Ilk qadam" dasturi, maktabgacha ta'lim, bola rivoji, o'yin faoliyati, tarbiya, ta'lim sifati.

Abstract


This article analyzes the essence and significance of the "Ilk Qadam" state curriculum aimed at developing the preschool education system in the Republic of Uzbekistan. The program focuses on ensuring the physical, cognitive, social-emotional, and creative development of children, as well as preparing them comprehensively for school education. In addition, the priority of play-based learning, the guiding role of the teacher, and the importance of cooperation between the family and preschool educational institutions are highlighted.



Keywords: İlk Qadam program, preschool education, child development, play-based learning, upbringing, quality of education.

Kirish

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan muhim me’yoriy-pedagogik hujjatdir. Ushbu dastur 3–7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat o‘quv dasturi "O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bolib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan.

"Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari" asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimida bola rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. U 2020-yilda UNICEF tomonidan nashr etilgan uslubiy qo‘llanmalar orqali keng targ‘ib qilingan. Dasturning yangi nashri maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy



kengashining 2021-yil 23-dekabrdagi 10-sonli bayonnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashr qilingan.

Davlat o‘quv dasturi – bu bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo‘lib, ta’lim va tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilaydigan tayanch hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat maktabgacha ta’limning muqobil, parsial, moslashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish uchun ham asosdir.

Davlat o‘quv dasturi kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, farovonligini ta’minlash zarurati, kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini yaratish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda bolaning tayanch kompetensiyalari, bolalar va pedagogning o‘zaro hamkorligi yangi formati, loyiha faoliyati uchun mavzularni tanlashda bolalar tashabbusi va imkoniyatlarini kengaytirish, individual tarzda va kichik guruhlarda ishlash uchun rivojlanish markazini tanlash, kun davomida bolalar bilan o‘quv faoliyatini birgalikda rejalashtirish, ta’lim olshni rivojlantiruvchi muloqot orqali birgalikda baholash, ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik yangilangan shaki xilma-xil imkoniyatlar taklif etildi, ta’lim muhiti imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan rivojlantiruvchi muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlar, dasturning inklyuziv xususiyati MTTning alohida ehtiyojli har bir bolaning alohida ta’lim ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limda qo‘shimcha yordam ko‘rsatish majburiyatlari, namunaviy kun tartibida ta’lim va tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt o‘zgartirildi, O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, xalqaro tajribani, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim bilan uzviylikni ta’minlash maqsadida o‘quv reja qisman o‘zgartirildi va bola rivojlanishini kuzatish va baholash jarayonini



optimallashtirish uchun bolaning rivojlanish xaritalari qisman o'zgartirildi, kengaytirildi, umumlashtirildi, hamda to'ldirildi.

Dastur 8 bob, 10 ilovadan iborat. Ulay quyidagilar:

- I bob. Umumiy qoidalar
- II bob MTT ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari
- III bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv
- IV bob. Ta'lim va tarbiya jarayoni
- V bob. Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari
- VI bob. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish
- VII bob. Davlat o'quv dasturi bo'yicha kutilayotgan ta'limiy natijalar
- VIII bob. Resurs

“Ilk qadam” davlat o'quv dasturiga ilovalar

- 1-ilova. MTT ta'lim dasturini yaratish bo'yicha tavsiyalar
- 2-ilova. MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi
- 3-ilova. Namunaviy o'quv reja
- 4-ilova. Namunaviy yillik mavzuli reja.
- 5-ilova. Namunaviy haftalik reja
- 6-ilova. MTTda o'tkazilishi belgilab qo'yilgan bayram tadbirlari ro'yxati.
- 7-ilova. Rivojlanish xaritasi.
- 8-ilova. 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi.
- 9-ilova. Guruhlarda rivojlanish markazlarining taxminiy joylashuvi.
- 10-ilova. Guruhlardagi rivojlanish markazlari va rivojlantiruvchi muhit uchun materiallarning namunaviy ro'yxati.

Rivojlanish sohasi



1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi.
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.
3. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari.
4. Bilish jarayonining rivojlanishi.
5. Ijodiy rivojlanish

“Ilk qadam” o‘quv dasturiNING 7-ilovasida berilgan rivojlantiruvchi xaritaning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. **Bolaning individual rivojlanishini kuzatish-** rivojlantiruvchi xarita har bir bolaning yoshiga mos ravishda jismoniy, ijtimoiy-emotsional, nutqiy, kognitiv va ijodiy rivojlanish darajasini aniqlash va monitoring qilishga xizmat qiladi.

2. **Ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish-** xarita orqali tarbiyachi bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlarni samarali rejalashtiradi.

3. **Rivojlanishdagi yutuq va muammolarni aniqlash-** bola rivojlanishida mavjud bo‘lgan kuchli jihatlar va qo‘shimcha e’tibor talab qiladigan sohalar aniqlanadi.

4. **Individuallashtirilgan yondashuvni ta’minlash-** har bir bolaga alohida yondashuvni amalga oshirish, uning rivojlanish sur’atiga mos pedagogik ta’sir choralarini belgilash imkonini beradi.

5. **Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash-** rivojlantiruvchi xarita natijalari ota-onalar bilan muhokama qilinib, bolaning rivoji bo‘yicha umumiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.





6. **Davlat ta'lim standartlariga muvofiqlikni ta'minlash**–“Ilk qadam” dasturida belgilangan rivojlanish sohalari va kutilayotgan natijalarning bajarilishini nazorat qilishga yordam beradi.

Rivojlantiruvchi xarita — bu bolani baholash vositasi emas, balki uning har tomonlama sog'lom va barkamol rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik hujjatdir.

Dasturning asosiy maqsad va vazifalari

“Ilk qadam” dasturining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashdan iborat. Ushbu maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

- bolalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
- aqliy va bilish jarayonlarini rivojlantirish;
- nutq va muloqot madaniyatini oshirish;
- ijtimoiy-emotsional barqarorlikni ta'minlash;
- ijodiy va estetik qobiliyatlarni rivojlantirish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Ilk qadam” davlat dasturining mohiyati – bolani majburlab o'qitish emas, balki uning tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, mustaqil, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu dastur maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va uzluksiz ta'lim tizimining mustahkam poydevorini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini bo'lib, bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim-



tarbiya jarayonini zamonaviy talablarga mos tashkil etish maqsadida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dastur bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularni maktab ta’limiga puxta tayyorlashga qaratilgan.

“Ilk qadam” davlat dasturining asosiy mohiyati bolaning shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Dasturda har bir bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinadi. Ta’lim jarayoni majburiy o‘qitishga emas, balki bolaning tabiiy rivojlanishiga mos holda, o‘yin va faoliyat orqali o‘rganish tamoyiliga asoslanadi.

“Ilk qadam” dasturida tarbiyachi bolaning yo‘lboshchisi va hamkori sifatida qaraladi. Tarbiyachi bolaga bilim beruvchi emas, balki uning rivojlanishiga sharoit yaratuvchi, yo‘naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi. “Ilk qadam” davlat dasturi maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. Dastur bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, uni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash hamda uzluksiz ta’lim tizimining mustahkam poydevorini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022
2. 2021-yil 23-dekabrdagi 10-sonli bayonnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi
3. <https://www.unicef.org/uz>
4. <https://lex.uz/>